

SO'LAK BEZLARINING FIZIOLOGIYASI

Alfraganus University

Stomatologiya kafedrası assistenti

Boltayev Sanjarbek Tolliboy o'g'li

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson organizmida so'lak bezlarining anatomik-fiziologik xususiyatlari, sekretiya mexanizmi va so'lakning tarkibi hamda uning og'iz bo'shlig'i homeostazidagi roli yoritilgan. So'lak ajralishining neyro-gumoral boshqaruvi, fermentativ faolligi va himoya funksiyalari ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *so'lak bezlari, sekretiya, amilaza, innervatsiya, og'iz bo'shlig'i, fermentlar.*

Аннотаци: *В статье рассмотрены анатомо-физиологические особенности слюнных желез, механизм секреции слюны, её состав и роль в поддержании гомеостаза полости рта. Проанализированы нейрогуморальные механизмы регуляции слюноотделения и защитные функции слюны.*

Ключевые слова: *слюнные железы, секреция, амилаза, иннервация, полость рта,*

Annotatsion: *The article discusses the anatomical and physiological features of salivary glands, the mechanism of salivary secretion, its composition, and its role in maintaining oral homeostasis. Neurohumoral regulation and protective functions of saliva are analyzed based on scientific sources.*

Keywords: *salivary glands, secretion, amylase, innervation, oral cavity,*

Kirish

Soʻlak bezlari inson organizmida ovqat hazm qilish tizimining boshlangʻich boʻgʻimi hisoblanadi. Inson organizmida uch juft yirik soʻlak bezlari (glandula parotis, glandula submandibularis, glandula sublingualis) hamda koʻplab mayda bezlar mavjud. Soʻlak bezlarining asosiy vazifasi — soʻlak ishlab chiqarish va ajratish orqali ogʻiz boʻshligʻida optimal muhitni taʼminlashdir.

Tadqiqot maqsadi

Inson organizmida soʻlak bezlarining fiziologik xususiyatlari, sekretsia mexanizmi va ogʻiz boʻshligʻi salomatligidagi ahamiyatini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish.

Material va usullar

Tadqiqotda soʻnggi yillarda chop etilgan ilmiy adabiyotlar, fiziologiya va stomatologiya boʻyicha darsliklar hamda klinik kuzatuv natijalari tahlil qilindi. Maʼlumotlar qiyosiy va analitik usulda oʻrganildi.

Natijalar va muhokama

Soʻlak 98–99% suvdan iborat boʻlib, uning tarkibida fermentlar (α -amilaza, maltaza), antibakterial moddalar (lizotsim, sekretor IgA), elektrolitlar va mutsin mavjud. Sutkalik sekretsia miqdori 1–1,5 litrni tashkil etadi.

Soʻlak ajralishi reflektor jarayon boʻlib, markaziy asab tizimi orqali boshqariladi. Parasimpatik taʼsir natijasida koʻp miqdorda suyuq soʻlak ajraladi, simpatik taʼsir esa quyuq sekretiyaning kuchaytirilishi. Soʻlakning asosiy fiziologik vazifalari quyidagilardan iborat:

Ovqatni namlash va yutishni osonlashtirish

Kraxmalni dastlabki parchalanishini taʼminlash

Ogʻiz boʻshligʻini mikroorganizmlardan himoya qilish

Tish emalini remineralizatsiya qilish

Soʻlak sekretiyaning buzilishi (giposalivariya, kserostomiya) stomatologik kasalliklar rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa

Soʻlak bezlari organizmida murakkab neyro-gumoral boshqaruv asosida

faoliyat yuritadi. Ularning fiziologik faolligi og'iz bo'shlig'i homeostazini saqlashda va ovqat hazm qilish jarayonining boshlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Tenovuo J. Salivary diagnostics and oral health. – Springer, 2019.

Edgar W.M. Saliva and oral health. – British Dental Journal, 2018.

Humphrey S.P., Williamson R.T. A review of saliva: normal composition and function. – J Prosthet Dent, 2024.